

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAHBARNING ROLI

Sherkulova Shoirra Buriyevna

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 18-son DMTT direktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14333257>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlar ta'lim jarayonlari samaradorligini orqali oshirish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** rahbar, interfaol uslublar, kommunikativ faoliyat, raqamli texnologiyalar, pedagoglar, ta'lim jarayonlari.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о путях повышения эффективности воспитательных процессов руководителями в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** лидер, интерактивные методы, коммуникативная деятельность, цифровые технологии, педагоги, образовательные процессы.

**Abstract.** This article provides information about ways to improve the effectiveness of educational processes by leaders in preschool educational organizations.

*образовательные процессы.*

**Keywords:** leader, interactive methods, communicative activity, digital technologies, pedagogues, educational processes.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda kadrlar rezervini shakllantirib, ular bilan doimiy ish olib boradi. Mudira bolalar bog'chasining butun faoliyatiga, bolalar bog'chasini obodonlashtirish, ko'kalam-zorlashtirish ishlariga rahbarlik qiladi. Smeta bo'yicha xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, muassasani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tartibini to'g'ri tashkil etish, bog'chani rejadagi bolalar bilan to'ldirish, ta'lim-tarbiya dasturining bajarilishi uchun javobgar, yozgi sog'lomlashtirish ishlari, pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularning mala-kasini oshirish ishlari bo'yicha bosh rahbardir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlar mudirasi xalq ta'limini boshqarish bo'limlari tomonidan oliy ma'lumotga va 5 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda kadrlarni tanlash, joyjoyiga qo'yish, tar-biyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi, maktabgacha ta'lim muas-sasasi kengashining faol ishtirokida amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umu-miy ta'lim mahoratini va madaniy darajasini muntazamo'stirib borishiga g'amxo'rlik qiladi, xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turili-shini ta'minlaydi. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Hozirgi kunda o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakll antirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi. Mudira maktabgacha ta'lim tashkilotlarning tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'la-qonli hal etishga qaratilgan. U

bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablar muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. o'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Mudira o'z ishida davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik, mudiraga qo'yiladigan asosiy talablaridir. Bundan pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi, pedagoglar o'quv jarayonida mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlarini domiyligini ta'minlanishi, pedagoglarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi, pedagogik va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi. Ana'naviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etilishi, pedagog tomonidan pedagoglarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va pedagoglarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedyaning muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta'lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda sinovdan o'tgan maxsus axborot vositalari: kompyuter texnikalari, audio va video vositalari qatoriga kelib qo'shilgan elektron ta'lim resurslari, virtual stendlar, animatsiyali dasturlar vositasida dars mashg'ulotlarini olib borish talabalar tomonidan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishlariga samarali natijalar berib borishi tayindir. Elektron ta'lim resurslari yordamida ta'lim jarayonlarni tashkil etish jarayoni, bunda bolalarning olayotgan bilimlarini na faqat eshitish, balki ko'rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g'oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi. Qator mualliflar tomonidan turli elektron o'qitish vositalari yordamida mavzularning yoritilishni joriy etib borilayotganligi, bunda bolalarning bilim saviyalarining oshib borayotganligini bevosita ishonch hosil qilish mumkinki, bu usullarning yanada takomillashtirilishi, yuqori pog'onaga olib chiqish kabi zaruratlar oldindan ko'rib, shu yo'sinda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish har bir rahbar hamda pedagogning dolzab vazifasi bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki, o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik va informatsion texnologiyalar bir necha turlarga bo'linib, ulardan eng muhimi — kompyuter texnikasi vositalari yordamida o'qitishdir. Shundan kelib chiqib, elektron darslik, virtual stendlarga qo'yilgan talablarni inobatga olgan holda, mashg'ulotlarni elektron variantda ishlab chiqib, foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ta'limda har bir davlatning o'zi ishlab chiqqan, o'z milliy qarashlarini aks ettirgan tizimlari bo'lishi bilan birgalikda jahon miqiyosida yangi texnologiyalarni, raqamli ta'limning istiqbolli natijalarini ham kuzatib boradilar. Zarur hollarda esa muvafaqqiyatli deb isoblangan loyihalar albatta amaliyotga

joriy etib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko’p sonli elektron darsliklar va elektron o’quv qo’llanmalarni ta’lim jarayonida qo’llash va u orqali o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish, masofaviy ta’limni yo’lga qo’yish, boshqaruv faoliyatini masofaviy tashkil etish, talabalar fikr-mulohazalarini doimiy bilib borish, avtomatlashgan nazorat sinovlarini tashkil etish, elektron o’quv manbalarini o’zida mujassam etgan katta ilmiy bazani shakllantirish, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarni joriy etish va ko’p sonli dasturlardan samarali foydalanishda namoyon bo’ladi.

Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari. Demak, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligi pedagogning o’quv mazmunini o’zlashtirishga yo’naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug’ullanishi, mustaqil fikr uritishi va tafakkur faoliyati bilan bog’liq. Zamon bilan hamnafas bo’lishda ziyoli pedogoglar bilan bir qatorda shijoatli yoshlarning ham o’rni beqiyosdir. Ilm-fandagi so’nggi yangiliklardan xabardor bo’lishimiz bilan birgalikda shunga yarasha biz ham javob qaytara olishimiz lozim bo’ladi. Zamonaviy texnologiyalarning afzalliklarini yaxshi anglagan jamiyat darhol uni o’zida joriy etish bilan birgalikda, o’zi ham bu borada izlanishlarga keng yo’l ochadi, xalqning tabiiy resurslari, qimmatbaho energiya va qiymatli vaqtini tejagan holda ishlab chiqarishda, agrar, ta’lim, sog’liqni saqlash, moliya qo’yinki barcha tarmoqlarda yuqori natijalarga erisha oladi. Bu esa bevosita davlatining bug uni va kelajagi ravnaqining asosi bo’lib xizmat qilishi shubhasizdir. Ta’lim jarayonida har bir daqiqani hisobga olgan holda ish olib borish zarur hisoblanadi. Xususan, dars mashg’ulotlari davomida har bir fan va darslikni o’zlashtirish uchun ajratilgan ma’lum bir vaqt mavjud bo’lib, shu muddat ichida darsning samaradorligiga erishish lozim bo’ladi. Bu esa pedagog va o’qituvchidandan yuksak mahorat, bilim va tajribadan tashqari zamonaviy texnologiyalarni ham bilish ko’nikmasini talab etadi. Albatta ta’limga biror yangi texnologiyani olib kirishda tajriba ishlari olib borilishi kerak bo’ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R. Ishmuhammedov, M. Yo’ldoshev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (Ta’lim tizimi hodimlari metodistlar, o’qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o’quv qo’llanma) – T: 2013.
2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya,
3. Usmonov M. Interaktiv elektron o’quv kurslar — o’qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. //”Xalq ta’limi” jurnali, 2013, 5-son.
4. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “Fan” 2007. Taylaqov N. I. Elektron darslik yaratishda qo’yiladigan talablar. //”Xalq ta’limi” jurnali, 2005, 2-son